

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O'QITISHDA IJTIMOYIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Turdiyev Jamshid Rashidovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti "Ijtimoiy gumanitar fanlar"
kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15650903>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada ijtimoiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyatini sharhlab, uni tarixiy ong, fuqarolik pozitsiyasi va madaniy merosga munosabat orqali shakllantirish usullarini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, dars jarayonlarida interaktiv metodlardan foydalanish, tarixiy voqealarga tanqidiy yondashuvni rivojlantirish va zamonaviy o‘quv materiallaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy kompetensiya, tarixiy ong, fuqarolik tarbiyasi, interaktiv metodlar, O‘zbekiston tarixi, dars jarayoni.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonlari, raqamli transformatsiya va axborot oqimlarining keskin ortib borayotgani davrida yoshlarda ijtimoiy ong, fuqarolik faolligi va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan ta'lim tizimining har bir bosqichi, xususan, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Ijtimoiy kompetensiya – bu shaxsning jamiyatda samarali muloqot qila olishi, fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy mas'uliyatli bo'lishi, turli ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olishi, tolerantlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalar majmuasidir. Bunday kompetensiyalarni shakllantirishda aynan tarix fanlari, jumladan, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fani o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Mazkur fan nafaqat tarixiy bilimlar, balki mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy bosqichlari, siyosiy va huquqiy islohotlar, jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatining shakllanishiga oid bilimlarni ham beradi. Shu bois, mazkur fan orqali o‘quvchilarda tarixiy ong, vatanga sadoqat, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi, tolerantlik, madaniy merosga hurmat kabi ijtimoiy kompetensiyalarni tizimli va maqsadli shakllantirish imkoniyati mavjud.

Tahlil va natijalar. Ushbu maqolada “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik, metodik va mazmunij jihatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, fan mazmunidan samarali foydalanish, interaktiv metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda jamiyat hayotida faol ishtirok eta oladigan shaxsni tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari ochib beriladi.

Bugungi kunda o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanining mazmuni bu yo‘nalishda keng imkoniyatlarni taqdim etadi.

Mustaqillikdan keyingi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, inson huquqlari va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi kabi mavzular o'quvchilarning ijtimoiy faol, tanqidiy fikrlaydigan, mas'uliyatli fuqaro sifatida kamol topishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda olib borilishi lozim bo'lgan didaktik yondashuvlar, metodik vositalar va o'qituvchilarning roli yoritib beriladi. Ijtimoiy kompetensiya faqat bilim emas, balki munosabat, qadriyat va faoliyatning uyg'unligidir.

Ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishda quyidagi asosiy yo'nalishlar alohida ajralib turadi:

1. Tarixiy ongni rivojlantirish: O'quvchilarda tarixiy faktlarga asoslangan holda mustaqil xulosa chiqarish, o'z milliy tarixiga hurmat bilan qarash hissini shakllantirish.

2. Fuqarolik faolligini tarbiyalash: "Eng yangi tarix" darslarida zamonaviy O'zbekiston taraqqiyot bosqichlari orqali davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat, qonuniylik va adolat tushunchalari asosida fikr yuritish.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Tarixiy voqealarga bir tomonlama emas, balki ko'p qirrali yondashuv asosida tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish.

4. Madaniy merosga nisbatan ijobiy munosabat: Madaniy va tarixiy obidalar, urf-odatlar va an'analarni qadrlash, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishni anglash.

5. O'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar: "Case-study", "debate", "timeline" kabi metodlardan foydalanish orqali ijtimoiy masalalarga qiziqish uyg'otish.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi yondashuvlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning nafaqat tarixiy bilimini, balki ijtimoiy mas'uliyatini, jamoada ishlash malakasini va vatanga sadoqat tuyg'usini oshiradi.

Xulosa. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish o'ta muhim. Bu esa nafaqat o'quv rejalari va metodik ta'minotga, balki o'qituvchining yondashuvi va darsdagi faoliyat turiga bog'liq.

Ijtimoiy kompetensiyaga ega bo'lgan yoshlar ertangi jamiyatda faol ishtirok eta oladigan, tanqidiy fikrlaydigan, madaniyat va tarixni qadrlaydigan shaxslar sifatida voyaga yetadilar.

"O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitish orqali o'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur fanning mazmunida mustaqil O'zbekistonning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari, demokratik islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi kabi muhim masalalar yoritilgan bo'lib, aynan shu asosda o'quvchilar ongida fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy faoliyatga qiziqish, vatanparvarlik va tolerantlik kabi kompetensiyalar shakllanadi.

Shuningdek, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, tarixiy hujjatlar va shaxslar asosidagi ishlanmalar orqali o'quvchilar ijtimoiy haqiqatni tushunishga, o'z nuqtai nazarini bildirishga, muhokama madaniyatiga ega bo'lishga o'rganadilar. Bu esa ularning kelajakda ijtimoiy faol, ongli va mas'uliyatli fuqaro sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish faqat fanga oid bilimlarni egallash emas, balki o'quvchilarda ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, madaniy tafakkur va jamiyat hayotiga befarq bo'lmagan pozitsiyani shakllantirish demakdir.

Shu bois, "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani bu borada kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega bo'lib, uni to'g'ri metodik yondashuv bilan o'qitish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" strategiyasi. – T.: 2021.
3. Mavlonova R.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2017.
4. Alimova D.A. O'zbekiston tarixi darslarini o'qitishda yangi yondashuvlar. – T.: Fan, 2020.
5. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and learning objectives. – Paris, 2015.